

*Shaxs*

**Yuridik shaxs  
bilan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha  
PSTN-G0013/44-sonli Abonent shartnomasi**

Namangan sh.

"27" May 2022

1. Keyingi o'rnlarda "Operator" deb yuritiluvchi "O'zbektelekom" AK (keyingi o'rnlarda matnda "Kompaniya" deb yuritiladi) nomidan 2021 yil 5 yanvardagi 21-01-14/27-sonli ishonchnoma asosida harakatlanuvchi "O'zbektelekom" AK Namangan filiali direktori B.Nurmatov bir tomonidan va keyingi o'rnlarda "Abonent" deb yuritiluvchi Туринбек Туан д.сон касб-хизб мактубу nomidan Ustav (Nizom, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida harakatlanuvchi Туринбек Нурсулони, ikkinchi tomondan, bundan keyin alohida "Tomon", birgalikda esa "Tomonlar" deb yuritiladi, telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish uchun ushbu Abonent shartnomasini (keyingi o'rnlarda matnda "Shartnoma" deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar.

1.1. Ushbu Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomasi imzolangan paytdan boshlab Abonent (shu jumladan uning hududiy vakolatxonalarini va filiallari) bilan avval tuzilgan shartnomalar yuridik kuchini yo'qotadi.

2. Abonent ushbu Shartnomani imzolab, rasmiy saytda e'lon qilingan "O'zbektelekom" AKning Ommaviy oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnoma tuzadi. Abonent Ommaviy oferta matni bilan tanishadi (Ommaviy ofertaning to'liq matni Operatorning savdo ofislarida, Operator Agentlarining savdo ofislarida va Operatorning rasmiy WEB-saytida joylashtirilgan). Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent avans to'lovi amalga oshirishi va to'lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjatni olishi Operatorning Ommaviy ofertasining shartlarini so'zsiz qabul qilish (akseptini) hisoblanadi.

3. Ushbu Shartnoma Abonent tomonidan imzolangandan so'ng Operator texnik imkoniyatlarning mavjudligini tekshiradi. Agar texnik imkoniyat mavjud bo'lsa, Operator Shartnomani o'z tarafidan imzolaydi va Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilgandan so'ng Abonent avans to'lovi amalga oshirishi mumkin. Texnik imkoniyat mavjud bo'lmagan taqdirda va Operator Shartnoma imzolangunga qadar ushbu hujjat Abonentning telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi arizasi hisoblanadi.

3.1. Abonentni ularash shartlari va telekommunikatsiya xizmatlariga tariflar (narxlar) ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan ilovalar bilan belgilanadi va ushbu Shartnoma kuchga kirgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi:

1-ilova. Ko'rsatiladigan xizmatlar:

- "Mobil aloqa xizmatlari uchun tarif rejalar (telefoniya, ma'lumotlar uzatish, VAS)";
- "Internet tarmog'iga doimiy korporativ kirish xizmatlar uchun tarif rejalar (KPK, IP telefoniy, VPN)";
- "IPTV xizmatlari uchun tarif rejalar";
- "Virtual xostingning" xizmatlari uchun tarif rejalar";
- "Bulutli videokuzatuv" xizmatlari uchun tarif rejalar";
- "Umumiy foydalanishdagi telefoniya xizmatlari uchun tarif rejalar (TfOP, PSTN)".

2-ilova. Ishni qabul qilish va ajratilgan ularishni sinash dalolatnomasi.

3.2. Abonent tomonidan Operator taqdim etadigan xizmatlar ro'yxatining tanlashiga qarab, tomonlar bitta ilovani rasmiylashtirishlari mumkin.

3.3. Tomonlar amaldagi ilovalaridan birining o'rniaga yangi ilovani imzolagan taqdirda, ohrigisi tomonlar ushbu Shartnomaga qo'shimcha bitim imzolagan paytdan boshlab tomonlar uchun o'z kuchini yo'qotadi.

4. Ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlarning qiymati ilovalarga muvofiq belgilanadi.

4.1. Tariflar Shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko'rsatiladi va ushbu Shartnoma tuzilgan vaqtida belgilangan barcha soliqlar va yig'ilmalni o'z ichiga oladi.

4.2. Shartnoma miqdori ushbu Shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan ilovalarga muvofiq taqdim etiladigan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi va:

QQSni	hisobga	olgan/olmagan	holda
( holda <u>150 000</u> ( <u>Бир 100 энгик минг сим</u> ) miqdorida abonent to'lovi hamda QQSni hisobga olgan/olmagan holda <u>150 000</u> ( <u>Бир 100 энгик минг сим</u> ) miqdoridagi bir mortalik to'lovi o'z ichiga oladi.		( so'mni tashkil etadi, u esa QQSni hisobga olgan/olmagan	

4.3. Ushbu Shartnoma / abonent to'lovi miqdori oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summaning miqdori tomonlar tomonidan imzolangan qo'shimcha kelishuv/taqdim etilgan hisob-faktura asosida to'lanadi.

4.4. Abonent keyingi hisob-kitob davri (hisobot oyi) boshlangunga qadar oldindan to'loving 100 (yuz) foiz sharti bilan har oyda xizmatlar uchun to'lovi amalga oshiradi. Ushbu to'lov Shartnomaning 7-bandida ko'rsatilgan Operatorning shaxsiy hisob raqamlariga pul mablag'larini ko'rsatilgan xizmatlar turini hisobga olgan holda, tanlangan hajm va tariflar/tarif rejalariga muvofiq o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

4.5. Xizmatlardan foydalanish uchun abonent to'lovi birinchi oyda ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni mobaynida amalga oshiriladi. Birinchi ularishda abonent to'lovi summasi oyning qolgan kunlari uchun qayta hisoblash yo'li bilan yechiladi. Avans to'lovi oldindan to'lov bo'yicha talabnomasi (hisob) asosida hamda Shartnoma asosida tegishli ilovada ko'rsatilgan miqdorga muvofiq har bir tanlangan xizmat turi uchun alohida amalga oshirilishi mumkin.

4.6. Agar Abonentning shaxsiy hisobvaraq'ida xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli mablag' bo'lmasa, Operator ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni to'xtatishi mumkin. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan foydalanilmaganlik fakti Abonent uchun ularni to'lashdan ozod qilish uchun asos bo'la olmaydi.

4.7. Operatordan Reklama aksiyalar davomida Abonentga taqdim etiladigan barcha bonuslar ko'rinishidagi mablag'lar

faqat Operator xizmatlari uchun to‘lanishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida to‘lanmaydi.

4.8. Taqdim etilgan xizmatlar ushbu Shartnomaga tayangan holda taqdim etilgan xizmatlarning har bir turi uchun alohida rasmiylashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada ushbu Shartnomaning 3.1-bandida ko‘rsatilgan ilovalariga muvofiq taqdim etilgan xizmatlarning to‘liq kalendar oyi uchun umumiyl miqdori ko‘rsatiladi. Agar 5 (besh) ish kuni mobaynida Abonent o‘z da‘volarini yozma shaklda yoki faks orqali taqdim etmasa, ushbu xizmat turi bo‘yicha hisob-faktura qabul qilingan va xizmatlar tegishli tarzda ko‘rsatilgan deb hisoblanadi. Abonentning da‘volari asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi oyda taqdim etiladigan xizmatlar uchun to‘lov talabnomasida (hisobida) tegishli tuzatishni amalga oshiradi.

5. Abonent Ommaviy oferta qoidalariga to‘liq va so‘zsiz roziligidini bildirdi. Ommaviy ofertada ko‘rsatilgan Shartnomaning barcha muhim shartlari (shartnoma predmeti, tariflari va xizmat turi, tomonlarning huquq va majburiyatlar, hisob-kitoblarning shakli va tartibi, javobgarlik va boshqalar) Ommaviy ofertaga muvofiq belgilanadi. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari amal qiladi.

6. Ushbu Shartnoma Abonent tomonidan Ommaviy oferta aksept qilingan (imzolangan) paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi. (byudjet oluvchi abonent uchun ushbu Shartnoma tegishli davlat organlarida tomonidan ro‘yxatga olinishi kerak). Bunda, agar Shartnomaning belgilangan amal qilish muddati tugagandan so‘ng tomonlar o‘z shartlarini bajarishni davom ettirsa va tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e’lon qilmagan bo‘lsa, byudjet oluvchi va yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan abonentlar uchun Shartnoma har bir keyingi yilga uzaytiriladi.

6.1. Ushbu Shartnoma, jumladan, Operatorning rasmiy saytida e’lon qilingan Ommaviy oferta, ilova va qo‘srimchalar, agar mayjud bo‘lsa, Shartnoma predmeti yuzasidan Operator va Abonent o‘rtasida to‘liq Shartnomani tashkil etadi.

6.2. Ushbu Shartnoma shartlari va Ommaviy oferta shartlari o‘rtasida qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lgan taqdirda, Ommaviy oferta shartlari va qoidalari ustun kuchga ega bo‘ladi.

6.3. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta’sis hujjatlari o‘zgargan taqdirda, shu jumladan mulkdorning, tashkiliy-huquqiy shaklining o‘zgarishi va boshqa o‘zgarishlar ro‘y bergan taqdirda, Shartnoma o‘z kuchida qoladi. Shu bilan birga, tomonlar 10 (o‘n) kun ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

6.4. Shartnomaga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan bo‘lsa va ushbu harakatlarga vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan, tomonlarning muhrlari bilan bosib tasdiqlangan bo‘lsa, haqiqiy hisoblanadi.

6.5. Ushbu shartnoma o‘zbek tilida, 2 (ikki) nusxada, har bir tomon uchun bittadan tayyorlangan.


7. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:

Operator	Abonent
AK «Узбектелефон» Namangan viloyat Namangan shaxar Istiqlol kuchasi 57 uy STIR:203366731 MFO:00401 IFUT:61100 H/r: 2021 0000 0040 7483 8363 "Aloqabank" ATB e-mail: b2b@uztelecom.uz Tel.: 1155	Турасурдеп Тумон 2-сон ишод-худор настади. Manzil: Турсурдеп Тумон Ҳудор иш.иши. Tel: 69 113 8028 93 915 0543. Faks: H/R: 100010860142267092901079002 Bank: Марказий Банк Тоҷ.и MFO: 00014 STIR: 203349699. IFUT: E-mail: LOT: G‘aznachilik bo‘linmasining nomi YaG’H23402000300100001010 Bank nomi Markaziy bankning Toshkent shaxar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi(HKKM): MFO:00014 G‘aznachilik bo‘linmasining STIRi 201722919 Buyurtmachi raxbari 

Imzo:

MJ

Nurmatov B

Huquqshunos 

Bajardi.:Tel: (69) 442-3150

Imzo:

MJ

Нурматов Бобур

Н. Турсурдеп.

Н. Отахонов.

Xizmatlar

1. Xizmatlar ro'yxati va ular uchun tariflar

O'lchov birligi Milliy valyuta - so'm

№	Xizmatlar ro'yxati	QQS bilan narx (qiymat)	asoslash	miqdor	miqdori, QQS bilan, so'm
1	2	3	4	5	6
I. Bir martalik to'lovlar					
1.1 Ro'yxatdan o'tish va ulanish			buyruq		
II. Oylik to'lovlar					
Telefon xizmati uchun oylik to'lov. Shaxar tarmog'i (kiritilgam limit 180 min. Limitdan tashqarisiga 12 so'm)					
2.1 Abonent to'lovi (tugridan-tugri ulash) IP-tel					
Abonent to'lovi			Narxlari ro'yxati		
Абон.плата за соединительную линию на ЭАТС 1 с					
Abonent to'lovi	6900.00	Narxlari ro'yxati	2	13800.00*	
Jami (oldindan to'lov)					13800.00

Jami oldindan to'lov: \_\_\_\_\_ so'm, 00 tiyin

Shu jumladan QQS: 15%.

Shartnoma miqdori 150 000 (Бир яз энгай минг сўм) so'm, oylik obuna to'lovini o'z ichiga oladi 150 000 (Бир яз энгай минг сўм) so'm. Agar shartnoma miqdori oshib ketgan bo'lsa, ortiqcha miqdori har oyda to'lanadi.

" Operator "

"O'zbektelekom" AK

Direktor Nurmatov B. X./ M.J.



" Abonent "

Direktor M.J.



**AKT**

**ishlarni qabul qilish va maxsus ulanishni sinovdan o'tkazish**

Ish telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma asosida amalga oshirildi  
PSTN-G0013/44 от 27.01.2022 y.

№	ish nomi	tugatish belgisi
1.	Ro'yxatdan o'tish va ulanish (Internetga ulangan holda) Namangan shahrida ATS-tezligi Kb / s	Bajarildi
2.	<b>Belgilangan kirish:</b> Maxsus IP: Ajratalgan telefon raqami:	Ishga tushirish sanasi: « <u>___</u> » 20 <u>__</u> г.

Abonent uskunalar ro'yxati,  
operator tomonidan ulanishni o'rnatish uchun abonentga sotiladi.

№	Uskunalarни идентификация (документный номер)	серия коди ёки серия рақами	Yetkazib berish narxi QQS bilan (15%), so'm
1	2	3	4
1		—	
2		--	

- \* Uskunalar Operator tomonidan Abonent mulkiga o'tkaziladi.
- \* Abonent Operator tomonidan sotiladigan abonent uskunasidan maqsadiga va texnik ish sharotlariga mos ravishda ulanishni tashkil qilish, uni yaxshi holatda saqlash uchun foydalanishni o'z zimmasiga oladi..
- \* Abonent yuqorida ko'rsatilgan Uskunaning sifati, assortimenti, miqdori bo'yicha hech qanday shikoyat qilmaydi.
- \* Ushbu dalolatnomaga sotib olingan Uskunaga egalik huquqini o'tkazish to'g'risidagi hujjatdir.

" Operator "

"O'zbektelekom" AK  
  
Direktor Nurmatov B. X./  
M.J.

" Abonent "

  
Direktor Hijratqazabov  
M.J.

Түракүрөн туман 2-сон касб-хунар мактаби хамда "О'ЗВЕКТЕЛЕКОМ" билан тузилган  
**150 000** умумий сүммадаги 2022 йил "дұ" Нұвар дати РСТН-боеzлии сонли шартномага

### ИЛОВАСИ

ӨЙЛПАР	Точка сони	Суммаси минг сум		Хаммаси База	Хаммаси Индексация	ОЙЛАР	Точка сони	База	Индексация	Суммаси минг сум	Хаммаси
		База	Индексация								
Январ	1	50000,0	0	50000,0	50000,0	Июл			0	0,00	
Феврал	1	50000,0	0	50000,0	50000,0	Август			0	0,00	
Март	1	50000,0	0	50000,0	50000,0	Сентябрь			0	0,00	
1-ЧОРАК	3	150 000,0	0,0	150 000,0	150 000,0	3-ЧОРАК	0	0,0	0,0	0,0	
Апрел			0	0,00	0,00	Октябрь			0	0,00	
Май			0	0,00	0,00	Ноябрь			0	0,00	
Июн			0	0,00	0,00	Декабрь			0	0,00	
2-ЧОРАК	0	0,0	0,0	0,0	0,0	4-ЧОРАК	0	0,0	0,0	0,0	
ИИЛГИК	3	150 000,0	×	×	×		×	×	×	×	×

Хизметтүр жетекшісінен  
Б. Чурнаев.



Истемолчи  
Н. Тұхтаназаров

